# BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINING LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANI TA'MINLASH TAMOYILLARI

***Sodiqova Aziza Hayitovna,***
*Zarmed Universiteti dotsenti,*
*Nizomiy nomidagi O'zbekiston*
*milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi*

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish nafaqat uning tarkibini yangilash, balki faol innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, ta'limda kognitiv ijodiy yo'llarni rivojlantirish, ta'lim jarayonini an'anaviy ko'rinishdan pedagogik tadqiqotlarda sinalgan yangi spektrdagi innovatsion integratsiyalashgan ta'limni qo'llash bilan yangilashni ta'kidlaydi. Integrativ ta'limni amalga oshirish natijasida integratsiyalashgan darslar uchun imkoniyatlar kengayadi, voqelikni yaxlit idrok etish ilmiy shakllanishiga hissa qo'shadi.

Iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar sharoitlarida mehnat bozorida ma'lum kasblar va mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj doimo o'zgarib turadi. Texnologik ta'lim tizimi bu o'zgarishlarga tezda moslashishi kerak. Buning uchun oliy ta'limning yo'nalishlari, kasblari va mutaxassisliklari klassifikatorida ikki, uch turdosh mutaxassisliklardan iborat bo'lgan kasblar bo'yicha o'qitish ko'zda tutilgan. Bu yoshlarning mehnat bozoridagi kasbiy harakatchanligini va yangilanayotgan ishlab chiqarish sharoitlarida tezda moslashuvini ta'minlaydi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda kadrlarni kasbga tayyorlashni mukammallashtirishning muhim shart-sharoiti zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlariga asoslangan ta'lim tizimini tashkil qilishdan iboratdir. Hozirgi davrda ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri, o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yutuqlardan keng foydalanish, ularni ta'lim tizimiga joriy qilib borish hamda rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini mamlakatimiz ta'lim tizimiga tatbiq qilish muhim hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida Texnologik ta’lim yo’nalishida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini ko‘p jihatdan mutahasislik fanlarini samarali o‘qitish belgilaydi. Mazkur fanlarni o‘rganishda ko‘proq amaliylik yuqori bo‘lganligi, ishlab chiqarishga yaqinroq hisoblanganligi gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlardan farqli ekanligini ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonidagi malakaviy amaliyotlar mutahasislik fanlari bilan o‘zaro bog‘liq holda olib boriladi. Mutahasislik fanlardan o‘qitish metodlarini tanlash va o‘quv maqsadlarini belgilash ham o‘ziga xoslikni talab etadi.

Texnologik ta’lim yo’nalishi fanlarining yetakchi komponenti bo‘lib “faoliyat usullari”, ya’ni bo‘lajak texnologiya fani o’qituvchilarning pedagogik jarayondagi amaliy faoliyati bilan bog‘liq pedagogik va texnologik jarayonlar hisoblanadi. Shuning uchun ham mutahasislik fanlaridan o‘quv-uslubiy majmualar yaratish va shu bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim mazmunini belgilashda, o‘quv jarayonini tashkil etishda, o‘qitishning samarali usullarini tanlashda chuqur didaktik tahlil o‘tkazish lozim.Texnologik ta’lim yo’nalishi fanlari pedagogik jarayonning aniq sohalari bo‘yicha, ularda aniq sohaviy (mutahasislik) xususiyatlarini aks ettiruvchi bevosita chuqur, puxta bilimlar beruvchi, tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qiluvchi jarayonlarni qamrab oladi. Bunday fanlar jumlasiga turli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarining sohalari: qishloq xo‘jaligi tarmoqlari, sanoat ishlab chiqarish korxonalari, mashinasozlik, transport, aloqa, xalq hunarmandchilik tarmoqlari, madaniyat va san’atning yo‘nalishlari va boshqa sohalar bo‘yicha faoliyat turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini bevosita namoyon etadigan fanlar, ularning qismlari kiradi.

Yuqoridagidan ko‘rinib turibdiki, 60111300-Texnologik ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan fanlar aloqadorligi Nizomiy nomida O’zbekiston milliy pedagogika universiteti “Texnologiya va professional ta’lim metodikasi” kafedrasi va shu ta’lim yo‘nalishida dars o‘tadigan bir qator kafedralarning tegishli fanlardan professor-o‘qituvchilari bilan birgalikda o‘rganib chiqildi va “Gazlama materiallariga ishlov berish va buyum tayyorlash texnologiyalari” fani bilan bog‘liq mavzulari ro‘yxati shakllantirildi. Mavzular aloqadorligi foizlarda hisoblanib, jadvalga kiritildi. Fanlar

takrorlanishining oldini olish, vaqtni tejash, mutahasislik fanlarining mazmunan aloqadorligini tahlil qilish orqali fanlar integratsiyasini ta’minlash masalalariga e’tibor qaratildi.

Texnologik ta’lim yo’nalishiga oid fanlarni integrativ yondashuvlar asosida o‘qitish shu sohaning ilg‘or texnologiyalari, yangi va oson dars o’tish metodlarini dars jarayonida to’g’ri va tizimli qo’llashga e’tibor qaratish soha taraqqiyotiga va uni boshqarish, texnologik jarayonlarni samarali tashkil etish, sifatli ta’lim samaradorligiga erishishga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun ham ta’lim texnologiyalarning o‘zgarib va yangilanib borishi, har bir bo’lajak o’qituvchining integrativ ta’lim orqali ixtisosligiga oid maxsus kompetentligini rivojlantirish, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo‘lishini hamda bir necha xil faoliyat turlari (o’qituvchi, tikuvchi, dizayner)ni bajara olishini talab etadi.

Texnologik ta’lim yo’nalishi fanlari mazmuni muayyan ta’lim yo‘nalishining tavsifiga mos tushishi, ya’ni ta’lim oluvchining egallaydigan mutahasisligi bo‘yicha bajariladigan faoliyat usullarini o‘zida qamrab olishi kerak. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilari pedagog va tikuvchi-dizayner tushunchalarni shakllantirish uchun mutahasislik fanlarining mazmunini belgilashda ta’lim tamoyilga rioya qilish lozim.

Mutahasislik fanlari mazmun va mohiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. O‘quv materialida texnologiya faniga bog‘liq masalalar yoritilgan mutahasislik fanlari. Bularga mahsulot ishlab chiqarish ya’ni tikuvchilik buyumlarini loyihalash jarayonida ishlatiladigan mashinalar va uskunalarning tuzilishi, ishlash prinsipi, ta’mirlanishi hamda ishlatish qoidalari, ularning konstruksiyalarini takomillashtirish, hisoblash, loyihalash, boshqarish, avtomatlashtirish, raqamlashtirish. Mehnat vositalari, moslamalar, asboblar va ular qismlarining tuzilishi. Mehnat obyektlari hisoblangan mashina va jihozlarni o‘rnatish, yig‘ish, ta’mirlash, sozlash metodlari va usullari yoritilgan o‘quv materiallari kiradi.

2. O‘quv materiallarida tikuvchilik buyumlarini loyihalash texnologiyasi bilan bog‘liq masalalar yoritilgan mutahasislik fanlari. Bularga alohida qismning butunligini tavsiflaydigan texnologik va mehnat jarayonlari, texnologik jarayonlarni loyihalash va kompleks avtomatlashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalash, yangi texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, nazorat qilish va boshqarish tavsiflari. Ilmiy tadqiqot ishlari va tajribalar olib borish, xavfsizlik qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi va gigiyenasi hamda mehnat qonunchiligi asoslari kiradi.

3. O‘quv materialida xom ashyo materiallariga bog‘liq masalalarni yorituvchi mutahasislik fanlari. Bularga ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan turli materiallar va xom ashyolarning fizik-kimyoviy xususiyatlari, mexanik-texnologik xossalarini eksperimental aniqlash va tayyorlanish texnologiyasini yorituvchi o‘quv materiallari kiradi. Shuningdek, xom ashyo materiallariga ishlov berishdagi jarayonlar, hisoblashlar va eksperimental izlanishlarga yo‘naltiruvchi o‘quv materiallarini o‘z ichiga oladi.

4. Texnologik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish va iqtisodiyoti to‘g‘risida o‘quv materiallarini o‘zida qamrab olgan mutahasislik fanlari. Ushbu guruhga barcha sohalar bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlashda o‘rganiladigan (texnologik jarayonlarni boshqarish, tikuvchilik buyumlarini loyihalashni tashkil etish) o‘quv materiallari, tikuvchilik buyumlarini loyihalash va ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish, axborot texnologiyalari, ilg‘or uslublarni qo‘llash va boshqalarni kiritish mumkin.

Texnologik ta’lim yo’nalishi fanlarini o‘qitish o‘zining ko‘pgina belgilari, ya’ni mazmuni, maqsad va vazifalari, metodlari, vositalari, tashkil etilishi, o‘tkazilish joyi, jihozlanishi, shakllari, tuzilishi, ajratiladigan vaqti bilan ham gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlardan keskin farq qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’limda Texnologik ta’lim ixtisoslik fanlari integratsiyasi yangi bilimlar va mahoratlarni egallashning chuqurligi va to‘liqligi, mavjud bo‘lgan bilimlar va mahoratlar bilan mustahkam va ko‘p tomonlama aloqadorligini ifodalaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sabab ta’lim tizimida

tubdan yangilanishga ehtiyoj, metodika va umuman pedagog kadrlar tayyorlash texnologiyasi o‘quv muassasalarida innovatsion o‘qituvchi faoliyatining yo‘nalishida aks etadi. Yaratishni, rivojlanishni o‘z ichiga oladi va pedagogik yangiliklardan foydalanish, yangilash vositasi sifatida ishlaydi, innovatsion va integratsion ta’lim tizimidagi ta’lim siyosatini amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sodiqova Aziza Hayitovna, Bo'lajak texnologiya fani o’qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-uslubiy ahamiyati. “Ta’limda istiqbolli izlanishlar”- xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 5/2026 ISSN: 3060-527X

2. Sodiqova Aziza Hayitovna, Umumta’lim tizimida integratsiyalashgan ta’limning pedagogik asoslari va tadqiqot metodlarining nazariy tahlili. “ILM-FAN VA INNOVATSIYA” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/si

3. Sodiqova Aziza Hayitovna, Integratsiyalashgan ta’limning pedagogik asoslari va tadqiqot metodlari. 5(34)2026 "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali